

MUZEY RIVOJIDAGI ISTIQBOLLI REJALAR
(Qo'qon shahar O'lkashunoslik muzeyi misolida)

Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi

kafedrası o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: rahimovazizbek09@gmail.com

Annotasiya: Zamonaviy badiiy jarayon va madaniy rivojlanishni aniqlash, taxlil qilishda muzey muxim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib, u madaniy qatlam sferasini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Ushbu maqolada Qo'qon shahar O'lkashunoslik muzeyi misolida muzeylarning ijtimoiy hayotdagi o'rni xususida mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon shahri, muzey, muzeylar faoliyati, O'rda, O'lkashunoslik muzeyi, eksponat.

Zamonaviy badiiy jarayon va madaniy rivojlanishni aniqlash, taxlil qilishda muzey muxim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib, u madaniy qatlam sferasini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Turli tarixiy evolutsion davr va madaniyatni o'zlashtirishda, uni targ'ib etishda, ommaga tanishtirishda muzey samarali aloqa vositasi vazifasini o'taydi.

O'zbekiston muzeylariga nazar tashlasak, uning son jihatidan ham, sifat jihatidan ham naqadar ilgari ketganiga, betakror madaniyatiga ega ekanligimizga guvoh bo'lamiz.

Muzeylar tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasini bo'lishi barobarida, ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim xalqasi va markazlari hamdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni hamda uni amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasi qarorlari muzeylar tizimida katta o'zgarishlar yasash, turizmni rivojlantirishda muzim asos bo'lib xizmat qildi.

Xozirda Respublikamizda turli vazirlik va idoralar tizimida davlat ro'yxatidan o'tgan 114 ta muzey faoliyat yuritmoqda. Shulardan 98 tasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi muzeylar bo'lib, ularning 70 foizi madaniy meros obyektlarida joylashgan.

Bugungi shiddatli madaniy jarayonda muzeylar faoliyatidagi yangi loyiha va tartiblarni o'rganib, tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Qo'qon shahar O'lkashunoslik muzeyi O'zbekistondagi ilk muzeylardan biridir. Muzey tashkil topganiga 90 yildan oshdi va u xaqli ravishda O'zbekistonning ko'hna va ilmiy potensial yuqori muzeylardan biri hisoblanadi. "O'rda" – Qo'qon xoni Xudoyorxon saroyi Qo'qon shahrining durdonasi bo'lib, u XIX asrning muazzam va muxtasham obidalaridan biridir. Shuningdek, u Turkiston zaminida saqlanib qolgan uch saroy majmuasining biridir. Ulardan

birinchisi Xivadagi “Toshxovli” saroyi, ikkinchisi Buxoro “Ark”i, uchunchisi Xudoyorxon “O’rda” sidir.

1924 yilda bu yerda Farg’ona viloyat qishloq xo’jaligi ko’rgazmasi ochilgan. Bir yildan so’ng mazkur ko’rgazma negizida muzey ochishga qaror qilingan. Muzeyning O’rda binosida joylashganligi uning omadi va yutug’dir. Tomoshabin bu muzeyda Farg’ona vodiysining ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgi kungacha bo’lan tarixi, vodiya istiqomat qilib kelgan millat va elatlarning etnografiyasi, vodiya xos amaliy san’at asarlari va hunarmandchilik mahsulotlari, xattotlik va kitobat san’ati, Buyuk Ipak yo’lining Qo’qondan o’tganligini isbotlovchi Sharq va G’arb osori-atiqalari, Farg’ona vodiysi hayvonot olami va mustaqillik yillarida Qo’qon shaxri taraqqiyoti aks ettirilgan ekspozitsiyalar bilan tanishishi mumkin.

Bugungi kunda madaniy meros obyekti hisoblangan muzeyga moslashtirilgan saroyda 1226,2 kv.m ekspozitsiyalar joylashgan bo’lib, unda jami 34 mingdan ziyod eksponat to’plangan.

2011 yilda Respublika “O’zbek muzey” jamg’armasi hamda muzey mutaxasislari tomonida Qo’qon shahar O’lkashunoslik muzeyining yangi ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqilib muzey ekspozitsiyasi yangilandi.

Qo’qon shahar O’lkashunoslik muzeyo joriy arxiv materiallarning ilmiy taxlili shuni ko’rsatadiki, Qo’qon shahrida turistik infra tuzilmani yanada takomillashtirish, zamonaviy yangi mexmonxonalarini ishga tushirish, sayyohlarni tarixiy-madaniy meros obyektlari bilangina emas, balki hunarmandlar ustaxonalari va to’y marosimlari bilan ham yaqindan tanishtirish ishlarini yo’lga qo’yish maqsadga muvofiqdir.

Qo’qonda saqlanib qolgan milliy me’morchilik obidalari XVIII-XX asrlardagi Farg’ona me’morchiligi tarixi haqida tasavvur beradi. XVIII asrga oid “Mir” madrasasi, XIX asr boshlariga oid “Daxmai Shoxon” va “Daxmai Modarixon” maqbaralari, Jom’e masjid, “Xishtin” madrasasi, Zinbardor, Xojibek, Soxibzoda Xazrat madrasalari va boshqa binolar mustaqillik yillarida ta’miratlanib, sayyohlar uchun ziyoratgoh qilinib, muzey mazkur yodgorliklarni o’z ichiga olgan bir necha yo’nalish asosida ekskursiyalar olib borishi mumkin. Shuningdek shaharda o’nlab milliy xovlilar ham saqlanib qolgan. Qiziqqan kishilar uchun muzey xodimlari tomonidan bu xovlilarga ekskursiyalar uyushtirilishi mumkin. Shu bilan bog’liq muhim bir muammoga e’tibor qaratish o’rinli bo’ladi. Yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash bilan shug’ullanuvchilar milliy xovlilarga ham e’tibor berib, ularni ta’mirlash, tiklash ishlarini yo’lga qo’yishmasa, bu yodgorliklar asta-sekin yo’q bo’lib ketishi mumkin.

Fan va texnika, shaharsozlik nihoyatda taraqqiy etgan hozirgi paytda odamlarda tabiatni qo’msash (sog’inish) kayfiyati kuchaydi. Xozir ham shahar atrofida, qishloq xo’jaligi taraqqiyotiga qaramay, tabiat yodgorliklari desa arzigudek joylar birmuncha saqlanib qolgan. Bizningcha, O’lkashunoslik muzeyi shahar atrofidagi “Qaynarbuloq” va “Oydinbuloq” buloqlari, Sariqamish ko’li,

Abdusamad va Pungan to'qaylari kabi tabiat yodgorliklariga ekologik ekskursiyalar, ko'ngilochar sayohatlar uyushtirishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim muzeylar o'z joylarini qabul va boshqa tadbirlar o'tkazish uchun ijaraga berib, daromad topadilar. Masalan, Sankt-Peterburgdagi Siyosat tarixi muzeyi bolalar tug'ilgan kunlarini o'tkazish bo'yicha muvaffaqiyatli tashkiliy ishlarni amalga oshirmoqda. Muzey xodimlari, ayni paytda, mijozning muassasadan ijobiy taassurot olib qaytishi bilan bog'liq masalalar xususida jiddiy ish olib borishi kerak. Agar mijoz muzeydan mamnun bo'lib chiqsa, u bu yerga qayta-qayta tashrif buyuradi, taassurotlarini tanishlari, do'stlariga so'zlab beradi va ularni muzeyga boshlab keladi.

Ana shu omillar muzeylar faolyatiga yangicha qarash uchun kuchli turtki bo'ladi. Muzey faolyatida yangi texnikalar vositasida chuqur bilimga ega kadrlar bilan ish olib borish muzeyning yanada rivojlanishiga va uning jaxondagi Luvr, Ermitaj, Metropletin kabi katta muzeylar qatorida joy olishiga asos bo'ladi.

Ushbu muzey o'zining qiziqarli eksponatlari bilan yosh ablodni vatanparvarlik, xalqimiz tarixi va buyuk ajdodlarimiz merosi bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashga ko'maklashishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi va shu yo'nalishda faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kholmuratovich, M. K., Mardanqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).

2. Baymurzayeva, O. S. (2020). Ixtisoslashgan san'at maktablarida o'quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishlashga o'rgatish metodikasi. *Science and Education*, 1(8).

3. Boltabayevich, B. B., & Pardaboy, K. (2020). Scientific and theoretical aspects of the formation of compositional abilities of students in painting classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(3).

4. Тоғаев, Х., Худойбердиев, П. У., & Ўмиров, А. А. (2019). Картография учун курвипланиметр. *Интернаука*, (20-3), 78-80.

5. Султанов, Х. Э., Худайбердиев, П. У., & Собиров, С. Т. (2017). Непрерывное образование в Узбекистане как требование времени. *Молодой ученый*, (4), 385-389.

6. Bobir Boltayev. Muzeyshunoslik fanidan uslubiy - qo'llanma. "Durdona" nashriyoti, Buxoro. 2016.

7. Krushkol. Qadimgi dunyo tarixi. O'qituvchi. Toshkent. 1964.

8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

9. <https://news.rambler.ru/other/44201332-mezhdunarodnyy-den-muzeev-v-kitae/>